

Toshpo‘lat Yuldashevich TUGALOV

SamDU tadqiqotchisi,

Samarqand, O‘zbekiston

tugalovtoshpulat@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli adabiyotshunos, munaqqid olim Nuriddin Shukurovning o‘zbek g‘azalnavisligi hamda g‘azal janri taraqqiyotiga doir ilmiy ishlari tahlil va talqin etiladi. Zamonaviy g‘azalchilikka tamal toshini qo‘ygan ijodkorlarimiz Sobir Abdulla, G‘afur G‘ulom, Habibiy, Turob To‘la kabi; mazkur janr rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan Erkin Vohidov, Tohir Qahhor kabi shoirlar qalamiga mansub g‘azallar tahlilida janr poetikasini inja his etuvchi hassos olim bo‘lganligi isbotlanadi. Shuningdek, olimning bu boradagi ilmiy izlanishlari boshqa adabiyotshunoslar, xususan, Jamol Kamolning ilmiy-nazariy qarashlari bilan qiyoslanadi.

Kalit so‘zlar: aruz vazni, munaqqid, g‘azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, mumtoz she‘riyat, radif, poetik mazmun.

"О МУНАККИД, НЕ ПРИНИЖАЙ ТЫ, ГАЗЕЛЬ, КАК СТАРУЮ..."

Ташпулат Юлдашевич ТУГАЛОВ

Исследователь СамДУ,

Самарканд, Узбекистан

tugalovtoshpulat@mail.ru

Аннотация. В данной статье анализируются и интерпретируются научные работы известного литературоведа, ученого-мунаккида Нуриддина Шукурова по узбекской газел и развитию газельного жанра на творчество таких поэтов, как Сабир Абдулла, Гафур Гулам, Хабиби, Тураб Тула, заложивших краеугольный камень современного газелизма; на анализ Газелей, принадлежащих к перу таких поэтов, как Эркин Вахидов, Тахир Кахор, внесших значительный вклад в развитие этого жанра. тонкое чувство поэтики жанра доказано, что он был чутким ученым. Кроме того, научные исследования ученого по этому вопросу связаны с научно-теоретическими взглядами других литературоведов, в частности Джамала Кемаля.

Ключевые слова: аруз, мунаккид, Газель, рубай, туюк, маснави, классическая поэзия, радиф, поэтическое содержание.

"O MUNAQQID, DON'T DEPRIVE YOU GHAZAL BY CALLING IT OLD..."

Toshpulat Yuldashevich TUGALOV

SamDU Explorer,

Samarkand, Uzbekistan

tugalovtoshpulat@mail.ru

Annotation. This article analyzes and interprets the scientific work of prominent literary scholar, munaqqid scientist Nuriddin Shukurov on the Uzbek ghazalnavism and the development of the ghazal genre. Uzbek and Eastern literature, as well as our creators who laid the foundation stone for modern ghazal, such as Sobir Abdullah, Ghafur Ghulam, Habibiy, Turob full; it is proved that Erkin Wahidov, Tahir Qahhor, who made a significant contribution to the development of this genre, was a sensitive scientist who subtly felt the poetry of the genre in the analysis of ghazals Also, the scientific research

of the scientist in this regard is associated with the scientific and theoretical views of other literary scholars, in particular, Jamal Kamal.

Keywords: aruz weight, munaqqid, Ghazal, ruboi, chicken, masnawi, classical poetry, radif, poetic content.

Ma'lumki, aruz vazni yillar o'tishi bilan yangicha mazmun va qiyofa kasb etib, yangicha obraz va ifoda usullari bilan boyib bormoqda.

Taniqli munaqqid Nuriddin Shukurov XX asrning 70-yillaridayoq g'azal janrining favqulodda keng imkoniyatlarini ko'rsatib o'tar ekan, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Haydar Yahyo, Jamol Kamol erishgan yutuqlar yangi mazmun, shakl, badiiy so'z mo'jizalarini ilmiy tadqiq etib, zamonaviy she'riyat yaratishda muallif mahorati sirlarini kashf etilishiga urg'u beradi. Ijodkor mahorati asarning asl yutug'ini belgilashi haqida birinchilardan bo'lib tahliliy maqolalariga e'tibor qaratadi. Bu jihat ham adabiyotshunos olimning milliy tanqidchiligimizdagi ilmiy izlanishlari o'ziga xos tadqiq jabhasida mahorat egasi ekanigini oydinlashtiradi.

Olim Respublika ilmiy-adabiy jamoatchiligiga o'zining favqulodda o'ziga xos kuzatuvlari, asosli tahlillari, janr va uslublar olamining jilvalarini zamonaviy shoirlar ijodi misolida sharhlab mumtoz adabiyotning eng go'zal namunasi bo'lgan g'azalning keying zamonlarda ham g'oyaviy-badiiy qimmatini yo'qolmasligi, aksincha, rivoj topib borayotganini o'z tadqiqotlarida isbotlab beradi.

Nuriddin Shukurov "An'analar yo'lida" maqolasida "Ko'p asrlik she'riyat merosiga voris bo'lgan hozirgi o'zbek poeziyasining xazinasi boy va rang-barang. Bu kungi she'riyatimizda, bir tomondan g'azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, muxammas, qasida, hajviya, marsiya, sonet kabi an'anaviy she'r turlari yangi obrazlar va ifoda usullari bilan yashamoqda. -deb yozadi. - Aruz vaznidan, klassik poeziyamizdagi she'riy shakllaridan foydalanish masalasini olaylik. Bu masalada O'tgan asrning 20-yillarda boshlangan bahsu munozara hanuz davom etmoqda." [3.25] Olim bu borada 1956, 1978 yillarda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida uyushtirilgan munozara, 1977, 1978 yillarda "Sharq yulduzi" jurnali redaksiyasi uyushtirgan bahslarni qayd etib, o'zi ham dadil ilmiy munozaraga kirishadi.

Nuriddin Shukurov Naim Karimov g'azalda muayyan cheklanganlik bor ekanini to'g'ri qayd etganini ta'kidlab, "Sen yetim emassan?" (G' G'ulom), "Siyob" (H. Olimjon), "Bahor keldi, seni so'roqlab", "O'g'lim sira bo'lmaydi urush" (Zulfiya), "Qo'riqxon", "Malomat toshlari" (A. Oripov) kabi she'rlarni g'azal shaklida yaratish imkoni yo'qligini aytadi. Ammo shu bilan birga Naim Karimov g'azaldan tamoman voz kechish, ya'ni uni yaroqsizga chiqarish fikrida emas. U Erkin Vohidov "Yoshlik devoni"ga kirgan qator g'azallari bilan bu ko'hna janrni zamon xizmatiga bo'ysundirishda uning yangi badiiy imkoniyatlarini inkishof etadi.

Olim g'azallarni ana shunday yangilab foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. "Klassik poetik shakllardan, shu jumladan g'azaldan ham mahorat bilan foydalanilsa, yaxshi samaralarga erishish mumkinligi o'zbek she'riyati amaliyotidan bizga yaxshi ma'lum." [3.30]

Nuriddin Shukurov zamonasi ijodkorlari misolida g'azalning go'zal namunalarini keltirib, ilmiy-nazariy jihatdan isbotlab beradi. Aruz vaznidan hozirgi zamon she'riyati uslubida, yangi mazmunga mos yangi shakl yaratishda foydalanish namunasini Hamza Hakimzoda "O'zbek xotin-qizlariga", "Muborak", Mirzo Tursunzodaning "Hindiston qissasi", "Ikki Sharq" turkumidagi she'rlarini, aruzdan novatorlik bilan foydalanishni G'afur G'ulomning "To'pchi yigit" she'rlarini misol qilib keltiradi. Aruzni yangi mazmun va vazifalarga xizmat qildirish shoirning mahoratiga bog'liq, degan xulosaga keladi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

1977 yil “Sharq yulduzi” jurnalining 4-sonida redaksiya uyushtirgan bahsda Norboy Xudoyberganov Erkin Vohidovning klassik she’riy shakllardan foydalanishidagi yutuq va kamchiliklar haqida gapirar ekan, “Inson”, “Qo‘llar” qasidalarining g‘oyaviy-badiiy qimmatini inkor etdi. “Inson”, “Qo‘llar” qasidalarida Erkin Vohidov hammaga ma’lum va manzur fikrlarni jamlab, ta’sirchan misralarga joylagan, she’rlarning musiqaviyligini ta’minlagani, ulardagi samimiy kuyga, tabiiy ohangdorlikka mahliyo bo‘lamiz, degan fikrni bildirib “ammo, o‘sha kuy, ohangga hayot murakkabliklarini tadqiq etish natijasida kashf etilgan salmoqli fikr, qudratli ma’no “payvandlanmagani” tufayli ongimizga ong, aqlimizga aql, tuyg‘ularimizga tuyg‘u qo‘shadigan zo‘r poetik topilma yaratilmagan.”[3.29] - degan xulosaga keladi.

Bu kabi noo‘rin da’volarga qarshi Nuriddin Shukurov tilga olingan asarlar tahlil qilinmagani uchun tanqidchining fikrlari quruq da’voligicha qolgani, har ikkala she’rning ichiga kirilsa, mag‘zi chaqilsa, ularda Norboy Xudoyberganov inkor etgan “salmoqli fikr” ham, “qudratli ma’no” ham mavjudligiga qanoat hosil qilish mumkinligini sharhlab beradi. Olim tadqiqiga asoslangan holda aytish mumkinki, Erkin Vohidov insonni falsafiy-estetik tomondan xarakterlab beruvchi juda kuchli lirik asar yaratgan.

Sobit-u sayyorada inson o‘zing, inson o‘zing,

Mulki olam ichra bir hoqon o‘zing, sulton o‘zing. (“Inson” qasidasi.)

Munaqqid qasidadan misollar keltirib Erkin Vohidovning klassik janr vositasida bugungi o‘quvchi va davr talablariga mos ravishda yuksak badiiy, pafosli asar yaratganini ta’kilaydi. Hazrati inson o‘zi yaratgan mo‘jizalarga vaqti kelib o‘zi lol va hayron, hatto, ular oldida ojiz bo‘lib qolishini inkor etolmaydi. Avvalida:

Shams-dil taftingdadir, sayyoralar kaftingdadir,

Keng jahon zabtingdadir, bog‘bon o‘zing, posbon o‘zing.-deya yaratuvchi va bunyodkor insonni ulug‘lagan shoir keyingi misralarda ezgulik tomonda ham yovuzlik tomonda ham Inson turganligiaa e’tibr qaratadi:

“Ul yon o‘zing, bul yon o‘zing, shayton o‘zing,

G‘ilmon o‘zing, sirtlon o‘zing, jayron o‘zing.

Tazod ilmiga asosiga qurilgan bu obrazlar kuchli ma’noga va emotsionallikka ega.

Zarrani ijod etib, dahshat balo bunyod etib,

Oqibatni yod etib, hayron o‘zing, hayron o‘zing.-kabi misralar ming-minglab qalblar kechinmasidir, o‘y-xayolidir, iztirobi, dardidir.-deb izohlaydi olim.

Olim fikrini davom ettirib, keyingi davrda yaratilgan g‘azallarda ishq-muhabbat, mavzusi realistik prinsiplar asosida yangicha ishlanayotgani, konkret oshiq zamon va makon ichida harakat qiluvchi real shaxs sifatida ko‘rsatilayotgani, bundan tashqari Vatan, do‘stlik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi juda ko‘p mavzular g‘azalda yangi davr voqea-hodisalari bilan bog‘liq holda yoritilayotgan ilmiy asosda isbotlab beradi. “Bu hol Sobir Abdulla, G‘afur G‘ulom, Habibiy, Turob To‘la, Erkin Vohidov, Jamol Kamol kabi shoirlarimizning yaxshi g‘azallarida ko‘zga tashlanadi.”[3.32]

Ey munaqqid, sen g‘azalni ko‘hna deb kamsitmagil,

Sevgi ham Odam Atodin qolgan inson qonida...

Shunday ekan, shoir dilida zamondoshlari, ayniqsa, yoshlarni g‘azalga qiziqtirish, ularda Navoiy ijodiga e’tiborni kuchaytirish kechiktirib bo‘lmaydigan burch edi. Shu bilan birga, bu xayrli yumushni mumtoz she’riyatning anglash murakkab tili va uslubida, zamonasozlik ruhida buyurtma g‘azallar yo‘lini davom ettirish bilan amalga oshirib bo‘lmazligi ravshan, shoir butunlay yangi uslub ixtiro qilmog‘i lozim edi. Erkin Vohidov buni qoyilmaqom qilib amalga oshirgan.

Erkin Vohidovning «Yoshlik devoni» nashr etilishi bir qator sifatlari bilan o'sha davr adabiy jarayonida «portlash» bo'lgan bo'lsa, mohiyatan mumtoz she'riyatimizning arxivga aylantirishga qarshi qaratilgan hayqiriq, ta'bir joiz bo'lsa, «isyon» ham edi. Adabiy jamoatchilik g'azal nihoyatda zamonaviy bo'la olishidan hayratga tushdi, devon yoshlarning ko'ksida asrab yuradigan hamrohiga aylandi, oshiqlar ma'shuqalariga o'z dil izhorlarini “Barcha shodlik senga bo'lsin, bor sitam, zorlik-menga” kabi misralar bilan izhor qila boshladilar. Devon g'azallari darhol xalq qo'shiqlariga aylana boshladi. Hatto tasdiqlash mumkinki, “Yoshlik devoni” bu borada o'ziga xos rekord o'rnatdi-qisqa muddat ichida o'nlab g'azalga kuy bastalandiki, bungacha hech bir she'riy to'plam bilan bunday hodisa yuz bergani tarix kitoblarida qayd etilmagan.

Nuriddin Shukurov shoirlar Jamol Kamolning “Ozmi tarixda?”, Tohir Qahhorning “Sarbadorlar” nomli g'azallarini tahlil qilar ekan, ularni tarixiy voqea-hodisalarni badiiy idrok etish asosida zulm-istibdodga adolatni, yovuzlikka insonparvarlikni, bosqinchilikka do'stlikni qarshi qo'yib ulug'lovchi original yangi asar sifatida baholaydi.

Elim qatlingga qasd etgan yozuvlar ozmi tarixda,

Ilondek sudralib yotgan josuslar kammi tarixda? Bu g'azal poetikasiga xos xususiyatlardan biri u aruzning hajazi musammani solim (mafoiylun- mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun) bahrida yozilgan. “Ozmi tarixda?” so'zlari so'roq usulida tuzilgan bo'lib, radif sifatida g'azalchilikda ilk bora qo'llanilgan. Bu esa darhol o'quvchi diqqatini tortadi. Poetik mazmuni konkretlashtiradi, badiiylikni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Tohir Qahhorning “Sarbadorlar” nomli g'azalini tahlil qilar ekan, olim uni monorifma qofiyalash usulida yozilgan g'azal ekaniga aniqlik kiritadi. Ijtimoiy mazmun va kechinmani ifodalovchi keskin ritmik ohang salobatli intonatsiyaga ega e'tibor qaratadi.

Boshni dorga tikkan inson,

Sarbadordir otimiz,

Dilda imon, qo'lda shamshir,

Ostimizda otimiz.

G'azalning oxirgi baytlari yangicha mazmun kasb etib, erk, ozodlik yo'lida bosqinchilarga qarshi kurash haqidagi kuchli qasam sifatida jaranglaydi:

Umrimiz sayyoru sarson,

Kechsa kechsin, bas, faqat

Qolsin ushbu elda bizning

“Erk” degan ijodimiz.

Nuriddin Shukurov ushbu g'azalning materiali, obrazlari va ohangi, g'oyasi bilan yangi bir asar sifatida baholaydi: “Bu g'azal shu janr taraqqiyotida alohida bir salmoqdor sahifani tashkil etadi, deb bemalol aytish mumkin.” [3.38]

Nuriddin Shukurov adabiyotga endigina kirib kelayotgan yoshlar ijodi bilan ham qiziqib, ularning yutug'i va kamchiliklarini ko'rastib berar, davr yoshlarining yangi, badiiy pishiq asarlar yaratishlari tarafdori edi. Munaqqid sifatida o'z davri adabiy jarayonini kuzatib, chop etilgan yangi asarlarni o'qib, munosabat bildirar edi.

Yuqorida qayd etilgan maqolasida olim 1986 yilda “Yosh gvardiya” nashriyotidan chiqqan “Oltin belanchak” nomli kitobga an'anaviy shaklda yozilgan she'rlar, ruboiy, tuyuq va g'azallari kiritilgan yoshlar ijodi haqida ham o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. Yoshlarda aruz ayniqsa, g'azal janrida she'r yozish mayli ancha kuchayganini e'tirof etadi hamda misralardagi fikriy chalkashliklar, ifodada gramatik g'alizliklar mavjudligagacha nazaridan qochirmaydi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Munaqqid aruz vazni va uning yangicha shakllariga oid adabiy kuzatuvlarini yakunlar ekan: “G‘azal ham, ruboiy ham, tuyuq ham fard ham g‘oyaviy-badiiy jihatdan original bo‘lib chiqqandagina biz uchun muayyan ijtimoiy-estetik ahamiyat kasb etishi mumkin. Ko‘p martalab poeziyada aytilgan gaplarni ozgina boshqacharoq qilib tizuvchilar va taqdim etuvchilarga esa Hazrat Navoiyning:

Yo‘q ersa nazm qilg‘anni xaloyiq,

Muqarrar aylamak sendan na loyiq. -degan pand-nasihatini eslatib o‘tish o‘rinli bo‘ladi.” [3.32]

Ilmiy ishning mavzu va tadqiqot obyekti nuqtai nazaridan mumtoz adabiyot namunalari o‘z davrida mohirona nasriy tahlil va tadqiq etgan zukko olimning serqirra ilmi va fazilatlarini yorqin namoyon etadigan ayrim maqolalari, g‘azallar sharhi, aruz haqidagi nazariy qarashlariga diqqatingizni tortishdan maqsad bu izlanish va xulosalar bugungi kunda ham dolzarb va ahamiyatli ekanini qayd etishdir.

Nuriddin Shukurov ijodiy metod masalasidagi nazariy maqolalarida har bir ijodiy metodning ifodasvir prinsiplari borligi, bu prinsiplar voqelikni aks ettirishda, hayotga bo‘lgan munosabatni ifodalashda o‘ziga xoslikni keltirib chiqarishini Alisher Navoiy dostonlari, Bobur, Fuzuliy va o‘z davri ijodkorlari g‘azallari asosida ilmiy isbotlab beradi.

Aruz vaznidan hozirgi zamon she‘riyatida yangi mazmunga xos yangi shakl yaratishda foydalanish namunalari tadqiq etgan munaqqid she‘riyatimizda g‘azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, qasida, hajviya, marsiya, sonet kabi an‘anaviy she‘r turlari g‘oyaviy-badiiy jihatdan serqirra bo‘lib borayotgani, yangicha mazmun-mohiyat kasb etayotganini dalillay oldi.

Nuriddin Shukurov an‘anaviylik va novatorlik masalalari borasida yetakchi tanqidchilar bilan nazariy bahslarga kirishib, mumtoz adabiyot turlari va shakllari rivoji va istiqboliga ishonch bildirdi.

Adabiyotlar:

1. Adabiy turlar va janrlar. Lirik. Uch jildlik. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1982. – 246 b.
2. Mirzo Kenjabek. Yoshlarga dil so‘zlarim. T., Adabiyot nashriyoti, 2020. – 212 bet.
3. N.Shukurov N. “So‘z sehri, she‘r mehri”. Samarqand:“Zarafshon” nashriyoti. 1992.-B.32.
4. Tashova Dilorom Salimovna. Mustaqillik davri she‘riyatida badiiy shakl izlanishlari. Buxoro, 2024 – B. 11.
5. Quronov D. Nazariy qaydlar. T., “Akademnashr”, 2018. – 128 bet.
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohim-haqqul-qita-va-gazal-munosabatiga-doir.html>.